

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

CHORIYEVA MUXLISA JUMAMURODOVNA

**INGLIZ TILIDAGI “PRIDE” VA O‘ZBEK TILIDAGI “G‘URUR”
KONSEPTI TARKIBI, MUNOSABATLARI VA LEKSIKOGRAFIK
TALQINI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna

Ingliz tilidagi “pride” va o‘zbek tilidagi “g‘urur” konsepti tarkibi, munosabatlari va leksikografik talqini3

Chorieva Mukhlisa Jumamurodovna

The composition, relationship, and lexicographic interpretation of the concept “pride” in English and “g‘urur” in Uzbek25

Чориева Мухлиса Жумамуродовна

Концепт “pride” в английском и “g‘urur” в узбекском языках: состав, соотношения и лексикографическая интерпретация47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ52

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

CHORIYEVA MUXLISA JUMAMURODOVNA

**INGLIZ TILIDAGI “PRIDE” VA O‘ZBEK TILIDAGI “G‘URUR”
KONSEPTI TARKIBI, MUNOSABATLARI VA LEKSIKOGRAFIK
TALQINI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil5395 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (namdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sidiqov Qosim Abilovich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Axmedov Oybek Saporboyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil " 8 " noyabr soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. tel.: (+998692228 -85-01; faks: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namd.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (2083) raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. tel.: (+998692228-85-01; faks: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil " 25 " 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil " 10 " 09 dagi 06/04 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.I.Ziyayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

I.U.Tojiboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Q.A.Sidiqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida lisoniy hodisalarni yangi ilmiy paradigma – antropotsentrizm qonuniyatlari chegarasida talqin qilish, madaniyatlararo aloqalar diskursida lisoniy birliklarning sotsiolingvistik, kommunikativ-konseptual, lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada ingliz tilidagi “pride” va o‘zbek tilidagi “g‘urur” konseptiga mansub lisoniy birliklarni lingvistik/ekstralingvistik tafakkur doirasida chog‘ishtirish, ularning ijtimoiy shartlanganlik belgisi, kommunikativ funkcionalligini umummilliy qoliplar asosida tahlil qilish muhim dolzarblik kasb etishi bilan birga, ushbu konseptlarning madaniy xilma-xilligi va turli jamiyatdagi qadriyatlarini chuqurroq anglash, til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, shaxsiy va jamoaviy qadriyatlar turli tillarda aks etishini aniqlash, inson tafakkuri bilan bog‘liq lisoniy konseptualizatsiya hodisasini nazariy baholash imkoniyatini yaratadi.

Dunyo tilshunosligida “g‘urur” tushunchasining mohiyatini, turli madaniyatlarda turlicha konnotativ ma‘nolarni kasb etishini o‘rganishga doir ko‘pgina tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Turli madaniyatlarda “g‘urur” tushunchasini turlicha anglashilishini o‘rganish, mohiyatan va milliy tabiati jihatidan farqlanuvchi ingliz va o‘zbek lingvomadaniy konseptosferasi birliklarining kommunikativ-kognitiv, etnomadaniy xususiyatlari, leksik-derivativ tamoyillari, kontekstual-pragmatik belgilarining chog‘ishtirilishi Sharq va G‘arb madaniy-lisoniy voqeligida yuzaga keladigan “g‘urur” va “pride” tushunchalarining shakl va mazmun chegaralarining funksional dinamikmi, variativlik qonuniyatlari, lisoniy shakli va leksikografik tahliliga ta‘sirini zamonaviy lingvistik ong doirasida asoslashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizning milliy taraqqiyot bosqichida dunyo hamjamiyatiga integrallashuvi o‘zbek tilshunosligida ham muhim islohotlarni taqozo etdi. Zero, “...ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozim, har bir oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi shart”dir.¹ Shu bois, o‘zbek tilshunosligida “g‘urur” konsepti milliy qadriyatlar, o‘zbek xalqining tarixiy merosi va an‘analari bilan bog‘liq holda tadqiq qilish, jumladan, xalqimiz ma‘naviy qadriyati ko‘rsatkichi sanalgan “g‘urur”, “oriyat”, “faxr”, “iftixor” tushunchalarining lisoniy-madaniy xususiyatlari, tarixiy negizlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida G‘arb tili bilan chog‘ishtirib o‘rganish zaruratini belgiladi. Ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatida tarixiy va zamonaviy qatlamga oid “g‘urur” konsepti atamaları freymlarini konseptual tahlil qilish xalqaro arenada o‘zbek tilshunosligi ravnaqiga keng yo‘l ochadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/3324> –O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 25.01.2020 y.

hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqi, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy- ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muasasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida "pride" tushunchasining mohiyatini o'rganishga doir ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bunday ishlar jumlasiga Aristotel, K.C. Levis, K.Bell, A.Benedikt, B.Nathaniel, Z.Kövecses, J.Treysi, R. Robins, M.Jonson, J.Layons, G.Mid, G.Erving² kabi ingliz olimlarining ishlarini kiritish mumkin. Rus tilshunosligida V.A.Maslova, V.I.Karasik, D.S.Lixachev, E.S.Kubryakova, Y.S.Stepanov, N.D.Arutyunova³ kabi olimlar tildagi madaniy konseptlar tadqiqini olib borishgan.

O'zbek tilshunosligida A.Mamatov, N.Mahmudov, M.Umarxo'jayev, Sh.Safarov, O'.Yusupov, M.Raxmatova, T.Mardiyev, M.Axmedova, R.Bobokalonov, S. Mahmudova⁴ kabi olimlarning tadqiqotlarida turli madaniy

² Aristotle. *Nicomachean Ethics*. Translated by W. D. Ross. Clarendon, 1926. – 182 p.; Lewis, C.S. *Mere Christianity*. – New York: Harper One, 2001. – 251 p.; Bell, C. *Ritual theory, ritual practice*. – Oxford University Press, Oxford. 1992. – 289 p.; Benedict A. *Imagined Communities*. 1983. – 160 p.; Tracy, J. L., & Robins, R.W. *The psychological structure of pride: A tale of two facets*. – *Journal of Personality and Social Psychology*. 2007. – P.506-525.; Branden, N. *The Six Pillars of Self-esteem*. – New York, N.Y., Bantam Books, 1994. – 348 p.; Lakoff, G. and Johnson, M. *Metaphors We Live By*. – University of Chicago Press, 1981. – 128 p.; Lyons, J. *Semantics*. Cambridge: Cambridge University Press. 1977. – 897 p.; Mead, G. *Mind, Self, and Society*. – University of Chicago Press, 1934. –437 p.; Goffman, E. *The Presentation of Self in Everyday Life*. – Bantam Doubleday Dell Publishing Group, 1959. – 173 p.

³ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: "Академия", 2001. – 208 p.; Степанов Ю.С., Проскурин С.Г. Константы мировой культуры. – М.: Наука, 1993. – 256 с.; Карасик В.И. Языковая личность: культурные концепты. – Волгоград; Архангельск: Перемена, 1996. –259 с.; Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Изв. АН. Сер. Лит. и яз. М.: Изд-во РАН, 1993. Т.52. – №1. – С. 3-9; Кубрякова Е.С. Человеческий фактор в языке: язык и порождение речи. –М.: Наука, 1991. –238 с.; Степанов Ю.С., Проскурин С.Г. Константы мировой культуры. – М.: Наука, 1993. – 256 с.; Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Изв. АН. Сер. Лит. и яз. М.: Изд-во РАН, 1993. Т.52. – №1. – С. 3-9.; Арутюнова, Н.Д 'Введение'. – ЛАЯ. Ментальные действия, Москва, .: 1993. – С.3–6.

⁴ Mamatov A.E. *Zamonaviy lingvistika*. – "Noshir", Toshkent, 2019. – 171 b.; Mahmudov N. *Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab*. O'zbek tili va adabiyoti – T.:2012.; Umarxo'jayev M.Э. Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма. – Тошкент Академ нашр, 2010. – 75 б.; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик.. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.91.; Yusupov O'.Q. *Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturologiya atamaları xususida*// *Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konfrensiya materiallari*. – Toshkent, 2011. –B.49.; Mamatov A.E. *Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? Tilshunoslikning dolzarb masalalari*: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2012. –

konseptlar, milliy g‘urur va an‘analar o‘rganilib, o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlari va ularga bog‘liq til unsurlari tahlil qilingan. Xususan, S.Po‘latovning tadqiqot ishi “g‘urur” konseptini ifodalovchi birliklarning media diskursdagi lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek, ingliz va turk tillarida qiyosida olib borilgan.⁵ Biroq, “g‘urur” konseptining tarkibi, o‘zaro munosabatlari va leksikografik talqini hali qiyosiy jihatdan tizimli o‘rganilmagan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining “Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari: adabiy jarayon, qiyosiy adabiyotshunoslik, uslubshunoslik va tilshunoslik masalalari” mavzusidagi ilmiy ishlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida “g‘urur” konsepti tarkibi, munosabatlari va leksikografik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida “pride” / “g‘urur” konseptiga tegishli birliklar tizimi hamda ushbu tizim tarkibidagi atov birliklarni aniqlash va mavzu jihatidan tasniflash;

ingliz va o‘zbek tillarida “g‘urur” konsepti munosabatlar doirasini o‘rganish va konseptual mohiyatini asoslash;

“g‘urur” konseptining semantik, leksikografik xususiyatlarini izohlash, qurilishi va strukturasi ochib berish;

“g‘urur” konsepti birliklarining badiiy diskursda ifodalanishini o‘rganish va uning ijtimoiy ahamiyatini belgilash.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi izohli, etimologik, ensiklopedik, tarjima lug‘atlari va badiiy diskursda “pride” va “g‘urur” konseptini tashkil qiluvchi birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillarida “g‘urur” konsepti birliklarining tarkibi, munosabatlari hamda leksikografik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-chog‘ishtirma, differensial-semantik, distributiv, freym tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

inson kognitiv va madaniy-lisoniy faoliyatining verballashuvi jarayonida “g‘urur” konseptini ifodalovchi birliklarining ma‘no o‘zgarishlari (*ijobiy, neytral va salbiy konnotatsiyalar*) doirasida mantiqiy qiymat kasb etishi hamda turli matnlarda

V.212-219; Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. – Ф.ф.ф.д (PhD) диссерт... автореферати. – Бухоро, 2019.; Мардиев Т. “Бахт” концептининг лингвомаданий ва семантик талқини (инглиз ва ўзбек тиллари қиссида) // “Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим” (Илмий ахборотнома журнали). – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти №10, 2016. – Б.36-44.; Ахмедова М.Б. Ўзбек тилидаги «маънавият» ва инглиз тилидаги «spirituality» умумий семали атов бирликлари типологияси. Ф.ф.ф.д (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2019. – Б.142.; Bobokalonov R.R. Sémantique et formation des mots. Guide d'étude. Editions universitaires européennes. 2021. – В.3-136.; Махмудова М. Ўзбек тилида “остона” концептининг лингвомаданий хусусиятлари (Т.Малик ва С.Ахмад асарлари мисолида). Ф.ф.ф.д (PhD) диссертацияси автореферати, 2022. – Б.46.

⁵ Po‘latova S.B. Media diskurslarda “g‘urur” konseptini ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik tadqiqi (o‘zbek-ingliz-turk tillari materiallari asosida). F.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi. – Andijon, 2023. – В.134.

ushbu birliklarning sinonimik va antonimik munosabatlar doirasida kontekstual va derivatsion mazmun kasb etishi aniqlangan;

har ikkala til kommunikativ jarayonida voqelanadigan “pride” va “g‘urur” konseptlari shakl va mazmun chegaralarining *kengayish, torayish, soddalashish va murakkablashuv* kabi leksikografik hamda badiiy diskursiv o‘zgarishlari har ikkala tilda ham ma’no doirasi, qo‘llanish muhiti va uslubiy qimmatida namoyon bo‘lishi asoslangan;

“g‘urur” konsepti birliklarining tarixiy-etimologik, o‘z va o‘zlashma qatlamga oid mikrosistemalar kabi shakliy strukturalarini aniqlash orqali ularning sodda va murakkab; bir komponentli, ikki komponentli va ko‘p komponentli turlari mavjudligi hamda ingliz tilida sodda tub va sodda yasama; o‘zbek tilida esa sodda tub, sodda yasama, qo‘shma va juft kabi yasaliş usullarining ustuvorlik kasb etishi aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi turli lug‘atlarda “g‘urur” konseptini ifodalovchi vositalar, ya’ni leksema, ibora, maqollarni tavsiflash muammolari yechimini ta’minlash orqali ushbu vositalarning leksikografik talqini takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“g‘urur” konsepti birliklarining izohli hamda tarjima lug‘atini tuzish tamoyillari ishlab chiqilgan, shu asosda ushbu konsept atamalarining inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha izohli lug‘ati yaratilgan hamda oliy o‘quv yurtlarining magistratura va bakalavr bosqichlari talabalari uchun mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘quv adabiyotlarini yaratishda zarur manba bo‘la olishi asoslangan;

“pride” va “g‘urur” konseptiga oid sinonimik qatorlar va ularning konnotativ (ijobiy, salbiy, neytral) xususiyatlari sistemali ravishda tahlil qilinib, leksik-ma’noviy o‘zgarish jarayonlari izohlangan;

“g‘urur” konseptiga tegishli birliklar tizimining konseptual mohiyatini belgilashda, kognitiv, assotsiativ xususiyatlari yoritilishi natijasida konsept shakllanishiga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo‘yilgan muammoning jahon tilshunosligining eng so‘nggi yutuqlari asosida ochib berilganligi, nazariy ma’lumotlar va faktik materiallarni qo‘llashda ishonchli ilmiy manbalardan foydalanilganligi, misollarning o‘zbek va ingliz tillaridagi lug‘atlar hamda ilmiy, badiiy adabiyotlardan olinganligi, ilmiy xulosalar qiyosiy-chog‘ishtirma, tasniflash, tavsiflash, lingvomadaniy, transformatsion, komponent, differensial-semantik, freym va geshtaldt, konseptual kabi tahlil usullari vositasida asoslanganligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, ish natijalaridan fundamental tadqiqotlarda foydalanilganligi, natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Olingan natijalar zamonaviy tilshunoslikda “g‘urur” konseptiga oid bir qator nazariy muammolarni tadqiq etishda muhim manba vazifasini o‘tashi, tadqiqot xulosalari ingliz va o‘zbek tillari leksikologiyasi va leksikografiyasi sohalarining nazariy asosini yaratishda, shuningdek, darslik hamda qo‘llanmalarni takomillashtirishda, zamonaviy akademik hamda o‘quv lug‘atlarini tuzishda ilmiy ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahillardan “Semasiologiya”, “Sotsiolingvistika va diskurs”, “Lingvokulturologiya”, “Leksikografiya” fanlari bo‘yicha maxsus kurslarni tashkillashtirishda, darslik, o‘quv va o‘quv-usuliy qo‘llanmalar yaratishda, mavjud lug‘atlardagi izoh va sharhlarni mukammallashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilidagi “pride” va o‘zbek tilida “g‘urur” konseptining tarkibi, munosabatlari hamda leksikografik xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

inson kognitiv va madaniy-lisoniy faoliyatining verballashuvi jarayonida “g‘urur” konseptini ifodalovchi birliklarining ma‘no o‘zgarishlari (ijobiy, neytral va salbiy konnotatsiyalar) doirasida mantiqiy qiymat kasb etishi hamda turli matnlarda ushbu birliklarning sinonimik va antonimik munosabatlar doirasida kontekstual va derivatsion mazmun kasb etishiga oid nazariy xulosalardan “Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san‘ati targ‘ibot markazida 61-01/09-son “Milliy qadriyatlar - yoshlar ardog‘ida” nomli fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (“Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san‘ati targ‘ibot markazining 2024-yil 3-dekabrdagi №ML01/01-76-son ma‘lumotnomasi). Natijada fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar va tezislarda milliy g‘urur tushunchasiga bog‘liq atamalarning terminologik tahliliga bag‘ishlangan misollardan foydalanish ilmiy loyihaning dolzarbligini oshirishga xizmat qilgan;

har ikkala til kommunikativ jarayonida voqelanadigan “pride” va “g‘urur” konseptlari shakl va mazmun chegaralarining kengayish, torayish, soddalashish va murakkablashuv kabi leksikografik hamda badiiy diskursiv o‘zgarishlari har ikkala tilda ham ma‘no doirasi, qo‘llanish muhiti va uslubiy qimmatida namoyon bo‘lishiga oid ilmiy xulosalardan Germaniya akademik almashinuv xizmati DAAD loyihasi tomonidan moliyalashtirilgan ID-57663348- “European Perspectives in Dialogue: Central Asia and Western Research – Muloqotda Yevropa istiqbollari: Markaziy Osiyo va G‘arb tadqiqotlari” mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihagini bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 23-dekabrdagi №06/7918-son ma‘lumotnomasi). Natijada talabalarda “milliy g‘urur” tushunchasini shakllantirish, xorijlik hamkorlarga “g‘urur” konseptining o‘zbek millati ongida ma‘no talqini ochib berilgan;

“g‘urur” konsepti birliklarining tarixiy-etimologik, o‘z va o‘zlashma qatlamga oid mikrosistemalar kabi shakliy strukturalarini aniqlash orqali ularning sodda va murakkab; bir komponentli, ikki komponentli va ko‘p komponentli turlari mavjudligi hamda ingliz tilida sodda tub va sodda yasama; o‘zbek tilida esa sodda tub, sodda yasama, qo‘shma va juft kabi yasaliş usullarining ustuvorlik kasb etishiga doir xulosa va natijalardan “g‘urur” konsepti atamalarining o‘zbekcha-inglizcha, inglizcha-o‘zbekcha lug‘ati”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (ISBN 978-9910-04-759-6). Natijada mazkur lug‘at “60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish”, “5111400 – Xorijiy til va adabiyot”, “60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari dars jarayonlarini tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi turli lug‘atlarda “g‘urur” konseptini ifodalovchi vositalar, ya‘ni leksema, ibora, maqollarni tavsiflash muammolari yechimini

ta'minlash orqali ushbu vositalarning leksikografik talqiniga bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining "Assalom Buxoro", "Dolzarb mavzu" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 17-dekabrda №01-09-184-son ma'lumotnomasi). Natijada "g'urur" konsepti lingvistik xususiyatlari haqidagi xulosalari teletomoshabinlarning ushbu masalalar yuzasidan bilimlarini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta lug'at, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shulardan, 5 ta respublika hamda 4 ta xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Olam manzarasi va konseptual tadqiqotlar**" deb nomlanuvchi birinchi bobida olam manzarasi shakllari (mifologik, lisoniy, ilmiy, falsafiy) o'rganilgan hamda ushbu masalalarga munosabat bildirilgan.

Bobning birinchi fasli "*Olam manzarasi*" tushunchasi va olamning lisoniy manzarasida konseptual tadqiqotlar" deb nomlangan bo'lib, unda falsafa, tilshunoslik va psixologiya fanlarida "olam manzarasi" tushunchasi inson ongida aks etgan olam haqidagi tasavvurlar nazarda tutiladi. Shu bilan birga, bu tushunchaga yaqin bo'lgan "olamning mifologik manzarasi", "olamning lisoniy manzarasi", "olamning falsafiy manzarasi", "olamning ilmiy manzarasi", "olamning badiiy manzarasi" kabi birikmalar ham ishlatiladi. Olam manzarasi – bu inson ongida shakllanadigan atrof-muhitning aksidir. U insonning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadi va shu bois u milliy-madaniy xususiyatga ega bo'ladi. Til insonning borliq haqidagi bilimlarini shakllantirish va mavjudligini anglashning eng muhim vositasidir. Faoliyat jarayonida til obyektiv borliqni aks ettirib, inson idrokining natijalarini so'z orqali ifodalaydi. Til orqali ifodalangan bu bilimlar majmui turli konseptual tushunchalar orqali tasvirlanadi. Jumladan, "oraliqdagi lisoniy olam", "olamni tilda tasvirlash", "olamning lisoniy modeli" va "olamning lisoniy

manzarasi” kabilar. Tilshunoslikda bu tushunchalar orasida “olamning lisoniy manzarasi” keng qo‘llaniladi.

Bobning “*Jahon va o‘zbek tilshunosligida konseptning o‘rganilishi*” deb nomlangan ikkinchi faslida konsept ta’rifi “hissiyot, baholash belgilari bilan o‘ralgan tushuncha bo‘lib, tasavvur, bilim, assotsiatsiya va kechinmalar to‘plamidan iborat, u so‘z orqali ifodalanayotgan tushunchalar bilan birga keladi”⁶ tarzida keltirilgan. Konseptlar cheklangan miqdorda bo‘ladi, chunki har bir voqelikni anglatadigan so‘z konseptga aylana olmaydi. Konsept, odatda, madaniyatdagi muhim va qadrlanadigan voqealar, ijtimoiy realiyalar, millatning o‘ziga xos qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘plab til birliklari, jumladan, milliy bayramlar, urf-odatlar, maqollar, matallar, xalq dostonlari va eposlar orqali ifodalanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda konseptni o‘rganishning uchta asosiy yondashuvi mavjud. Birinchi yondashuvda, madaniy aspektga katta e’tibor qaratiladi va konseptlar majmui madaniyatning muhim qismi sifatida qaraladi. Inson konseptni xalq madaniyatining bir elementi sifatida tushunadi. Ushbu yondashuvda konsept inson ongida asosiy holatni egallagan tushuncha sifatida qaraladi. Olim V.N.Teliya fikricha, konsept obyektini uning bor holati bo‘yicha bilishdir va bu yondashuvda tilning roli ikkinchi darajaga tushadi, chunki til faqat yordamchi vosita sifatida qaraladi.⁷

Ikkinchi yondashuv vakillari esa konsept tuzilishida til vositasi semantikasini yagona vosita deb hisoblashadi, ya’ni tilning o‘zi konseptning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi.

Uchinchi yondashuv vakillari konsept so‘z ma’nosidan tashkil topgan va insonning turmush tajribasi bilan chambarchas bog‘liq, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, konsept insonning dunyoda sodir bo‘layotgan hodisalarni idrok etishdagi individual xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, Y.Kubryakovaning “konsept – inson ruhiyatida namoyon bo‘lgan dunyoning tasviri, inson ongining konseptual sistemasi va mental leksikondagi xotiraning mazmuniy birligidir”⁸ degan ta’rifi ushbu tushunchani izohlashda eng maqbuli hisoblanadi.

Bobning uchinchi fasli “*G‘urur*” tushunchasining konsept sifatida shakllanishi” deb nomlanib, unda ingliz va o‘zbek tillarida “g‘urur” konsepti tarkibi va shakllanish bosqichlari yoritilgan. Ingliz tilida *pride* (g‘urur) atamasining metaforik, semantik va leksik jihatlari ingliz tilining uch asosiy tarixiy davri doirasida o‘rganiladi: O‘rta ingliz davri (taxminan 1400–1700 yillar), yangi ingliz davri (taxminan 1700–1900 yillar) hamda zamonaviy ingliz tili davri (XX asr va undan keyingi bosqichlar), bu davrda dastavval boshlangan semantik va konseptual siljishlarning mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi. XX asrdagi “g‘urur” tushunchasi keng ma’noda o‘zini qadrlash, shaxsiy va ijtimoiy uyg‘unlik bilan chambarchas bog‘liq hissiyot sifatida tan oлина boshlandi. “G‘urur” konsepti endilikda murakkab va kontekstga bog‘liq holat sifatida talqin qilinadi.

⁶ Кубрякова Е.С. Человеческий фактор в языке: язык и порождение речи. – М.: Наука, 1991. – 238 с.

⁷ Умархўжаев М.Э. Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма. Академ нашр. – Тошкент, 2010. – 75 с.

⁸ Степанов Ю.С., Проскурин С.Г. Константы мировой культуры. – М.: Наука, 1993. – 256 с.

Ishning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida “g‘urur” konsepti semantik-struktur tahlili va o‘zaro munosabatlari”** deb nomlanib, unda chog‘ishtirilayotgan tillarda “g‘urur” konsepti tarkibidagi atov birliklar tahlili, ushbu birliklarning sinonimik, antonimik, polisemantik munosabatlari tahlili keltirilgan. Bobning birinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek milliy lisoniy tasvirida “g‘urur” konseptining semantik-struktur tahlili”* deb nomlanib, unda “g‘urur” konseptini ifodalovchi atov birliklar qo‘llanishidagi maxsuslashuv umumlisoniy hodisaligini, bu tizim sun‘iy yaratilma emas, balki tilning obyektiv taraqqiyoti mahsuli ekanligini asoslash maqsad qilingan.

Ingliz tilida “pride” konsepti qator kategoriyalardan tashkil topganligi qayd etilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- “shaxsiy g‘urur” kategoriyasi (category of “personal pride”);
- “milliy g‘urur” kategoriyasi (category of “national pride”);
- “ijtimoiy g‘urur” kategoriyasi (category of “social pride”);
- “jamoaviy g‘urur” kategoriyasi (category of “collective pride”);
- “madaniy g‘urur” kategoriyasi (category of “cultural pride”);
- “oila va yaqinlaridan g‘ururlanish” kategoriyasi (category of “pride in family or loved ones”);
- “g‘urur va takabburlik o‘rtasidagi chegara” kategoriyasi (category of “the boundary between pride and arrogance”).

Ingliz tilida “pride” konseptining ijobiy yoki salbiy ma’no xususiyatlari ingliz madaniyatida kontekstga bog‘liq va u turli talqinlarga (shaxsiy yutuq va izzat-nafsdan tortib, takabburlik va o‘zini ortiqcha ulug‘lashgacha) ega bo‘lishi mumkin. Quyidagi jadvalda (2.1.-jadval) “pride” konseptining ijobiy va salbiy konnotativlik hosil qiluvchi birliklarini tahlil qilamiz:

2.1-jadval.

“Pride” konseptining ijobiy va salbiy konnotativ ma’nolari

<i>Ijobiy konnotatsiya</i>	<i>Salbiy konnotatsiya</i>
Accomplishment	Arrogance
Achievement	Conceit
Excellence	Egoism
Honor	Hubris
Integrity	Narcissism
Respect	Pomposity
Self-confidence	Self-importance
Self-esteem	Superiority
Success	Vanity
Virtue	

Tushunchaning inson ongida yuqoridagi kabi farqli anglashilishiga misol sifatida “pride” kabi mavhum konseptlar freym va skriptlari har bir xalq tafakkurida turlicha shakllanishiga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni, ingliz ongida “pride” nafaqat diniy va boshqa mavjud e’tiqodlar hosilasi, balki kishining o‘z-o‘zini anglashi, shaxsiy e’tiqodlarini muayyan ijtimoiy hayotdagi mavjud me’yoriy e’tiqodlar bilan mushtarak holda anglashi sifatida voqelanadi.

Ingliz tilidagi “pride” freymini quyidagicha aks ettirdik (2.2. -jadval):

2.2.-jadval.

“Pride” konsepti freym tahlili

FREYM	TAHLILLAR	MISOLLAR
Civic Pride (Fuqarolik g'ururi)	Yurtga, jamiyatga nisbatan ijobiy hissiyotlar va qadr-qimmatni anglash. Fuqarolarning o'z mamlakati, shahar yoki hududidan faxrlanishi.	Ushbu freym <i>volunteering, community service, local development, civic engagement, public leadership</i> kabi birliklarni o'z ichiga oladi.
Community Pride (Jamiyat g'ururi)	O'z jamoasi, mahalla, qo'ni-qo'shnilarining rivojiga hissa qo'shishdan g'ururlanishi.	Ushbu freym <i>neighborhood events, community festivals, local activism, public participation, civic pride</i> kabi birikmalarni o'z ichiga oladi.
Cultural Pride (Madaniy g'urur)	O'z milliy, etnik yoki madaniy merosidan g'ururlanish/faxrlanish. Insonlar o'z urf-odatlarini va tarixini qadrlashi.	Ushbu freym <i>cultural festivals, heritage preservation, traditional celebrations, folk music, cultural identity</i> kabi birikmalarni o'z ichiga oladi.
Family Pride (Oilaviy g'urur)	O'z oilasi, avlod, ajdodlarining muvaffaqiyatlari va qadr-qimmatidan g'ururlanish.	Ushbu freym <i>family achievements, generational success, parental pride, family traditions, ancestral legacy</i> kabi birliklarni o'z ichiga oladi.
Martial Pride (Jangovar g'urur)	Harbiy xizmat, jangovar muvaffaqiyatlar va jasoratdan iftixor hissini tuyish.	Ushbu freym <i>military service, national defense, soldier's honor, combat victories</i> kabi birliklarni o'z ichiga oladi.
Masculine Pride (Erkaklik g'ururi)	Erkaklar o'z xususiyatlari (mardlik, jasorat, adolat, oilaning boshi bo'lish kabi)ni va jamiyatdagi rolini qadrlashi.	Ushbu freym <i>strength, resilience, leadership, responsibility, protective instincts</i> kabi so'zlarni o'z ichiga oladi.
National Pride (Milliy g'urur)	O'z vatani yutuqlaridan g'ururlanish va mamlakatning yutuqlari bilan faxrlanish.	Ushbu freym <i>patriotism, national flag, national heritage, national celebrations, cultural pride</i> kabi so'zlarni o'z ichiga oladi.
Racial Pride (Etnik kelib chiqishidan g'ururlanish)	Irqi yoki etnik kelib chiqishidan g'ururlanish.	Ushbu freym <i>racial identity, equality, cultural pride, social justice, anti-racism</i> kabi so'zlarni o'z ichiga oladi.
Religious Pride (Diniy g'urur)	Diniy e'tiqod va an'analardan g'ururlanish.	Ushbu freym <i>faith, religious rituals, spiritual beliefs, religious community, devotion</i> kabi birikmalarni o'z ichiga oladi.
Traditional Pride (An'anaviy g'urur)	O'z xalqining urf-odatlarini, an'analari va tarixiga nisbatan g'urur hissi.	Ushbu freym <i>heritage, customs, traditional practices, family legacy, rituals</i> kabi birliklarni o'z ichiga oladi.

“National pride”, “cultural pride” va “social pride” kabi kategoriyalar ingliz tilidagi “pride” konseptini boshqa tillardagi konseptlar bilan bog'lab turuvchi tayanch tushunchalar hisoblanadi.

“Pride” konsepti tarkibidagi birliklar

Modesty	Dignity	Egocentricity
Arrogance	Dishonor	Egoism
Boastfulness	Disrepute	Glory
Brash	Druthers	Nobility
Brass	Ego	Gratification
Buzz	Modesty	Haughtiness
Complacence	Honour	Hubris
Conceit	Humiliation	Reticence

Ingliz tilida “pride” konsepti tarkibiga kiruvchi birliklarning ko‘pchiligi so‘z yasovchi qo‘shimcha va prefikslar yordamida boshqa grammatik kategoriyaga o‘tishi yoki ushbu vositalar yordamida boshqa turkumlardan hozirgi tizimiga o‘tgan bo‘lishi mumkin. Masalan, ingliz tilida “pride” otidan, “proud” sifati va boshqa hosila shakllar yasalgan. Bu tahlil “pride” leksemasining grammatik polifunksionalligini va ikkala tilning so‘z yasovchi tizimlaridagi o‘xshashlik va farqlarni ko‘rsatadi. Shu o‘rinda ingliz tilidagi so‘z yasovchi qo‘shimcha va prefikslar yordamida yasalgan “pride” konsepti birliklarini tahlil qilsak:

Pride (n)

Boast (n)

Proud (adj)

Boast (v)

Prideful (adj)

Boastful (adj)

Pridefully (adv)

Boastfulness (n)

Satisfaction (n)

Ego (n)

Satisfy (v)

Egocentric (adj)

Satisfactory (adj)

Egoism (n)

Ingliz tilida “pride” konsepti tahlil qilinganda, uning turli shakllari va tilshunoslikdagi semantik, kognitiv va madaniy jihatlari hisobga olinadi. Ingliz tilidagi “pride” konseptosferasi birliklarini ikki yirik guruh bo‘yicha tasniflash mumkin:

a) *o‘z qatlam birliklari*. Masalan, shame – uyat, dignity – qadr-qimmat, satisfaction – mamnunlik, arrogance – xudbinlik, truth – haqiqat kabi birliklarni kiritish mumkin. Bular bevosita ingliz tilida shakllangan birliklardir;

b) *o‘zlashma qatlam birliklari*. Bu qatlamga vanity – takabburlik, hubris – kibr, honour – shon-sharaf kabi birliklarni misol sifatida aytish mumkin. Bu qatlam birliklari, asosan, lotin tilidan kirib kelgan.

Quyida ingliz tilidagi “pride” ifoda birliklarining struktur tahliliga kirishamiz. Bunda genetik klassifikatsiya tamoyillaridan kelib chiqish tadqiqotimiz izchilligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Avvalo, struktur jihatdan “pride” konsepti birliklari guruhlanadi:

a) *tub sodda birliklar*. Ushbu birliklar tub ingliz so‘zlari bo‘lib, ularning tarkibi faqat asos qismidan tarkib topgan. Masalan, *honor, dignity, esteem, respect, ego*. Ushbu misollar orasida turli grammatik kategoriyaga mansub, ma‘no jihatdan esa bir-biriga yaqin so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin. Ammo ushbu so‘zlarning bari mustaqil asos so‘z sifatida namoyon bo‘lgan;

b) *tub yasama birliklar*. Ushbu birliklar sirasiga asosiga qo‘shimcha qo‘shilgan so‘zlarni kiritamiz. Masalan, *prideful, egoistical, hopefulness*. Keltirilgan so‘zlar

asosiga shakl yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib bu yasama so‘zlar yangi grammatik funksiya bajaradi.

“G‘urur” konsepti o‘zbek xalqining ijtimoiy hayotida har doim eng muhim axloqiy me‘yor sifatida mavjud bo‘lgan. O‘zbek lisoniy ongida “g‘urur” konsepti mavjud bo‘lgan deyishimizga sabab shuki, bugungi kundagi yangi talqinlarda – izohli lug‘atlar, qomuslarda ushbu leksema yoki tushuncha doirasida sharhlanayotgan ma‘no va izohlarda, tavsiflarda qayd etilayotgan tushunchalar yangi davrdagina shakllangan deb bo‘lmaydi. E‘tibor qiling: “G‘URUR – (jaholat; xom (puch) hayol; manmanlik, mag‘rurlik; kibr-havo) 1. Insonning o‘z qadr-qimmatini bilishi, uni hurmat qilish hissi; izzat-nafs. *Yigitlik g‘ururi. Qizlik g‘ururi. - Uning insoniy g‘ururi, tabiatning nozikligi...yordam so‘ramoqqa yo‘l qo‘ymagan.* (Oybek, Navoiy). *Axmad o‘rtog‘iga qoyil qolmadi. Erkak kishida g‘urur degan narsa bo‘lishi kerak...* (F.Musajonov, Himmat).

2. Faxrlanish, mamnunlik tuyg‘usi; faxr, iftixor. *Shodligidan terisiga sig‘maydi, ko‘ngli g‘urur ila mastona chayqaladi.* (S.Siyoyev, Avaz). *Sanobar o‘g‘liga g‘urur va mehr bilan jilmayib qarab turar edi.* (M.Xayrullayev, Ko‘ngil).....

4. Kibrlanish tuyg‘usi, mag‘rurlik, kibr-havo. *Olifta boyvachcha kibr va axmoqona g‘ururi ila kresloda taltayganicha qoldi.* (Oybek, Nur qidirib). *Gapingning tuzi qursin, qizim. G‘urur g‘urbatga solar, degan naqlning mag‘zini chaqsang-chi.* (J.Abdullaxonov, Tong yorishgan sohilda).⁹

“G‘urur” konseptini tashkil etuvchi birliklar tuzilishiga ko‘ra nutqda so‘z va so‘z birikmasi ko‘rinishlarida qo‘llaniladi.

So‘z holatidagi birliklarning ichki turlari quyidagilar:

a) *sodda so‘z holatidagi birliklar:* andishali, bodilanmoq, bodilik, dimog‘, dimog‘dor, dimog‘li, faxr, faxrlanmoq, faxrlanish, faxrli, gerdaygan, garillamoq, gerdaymoq, gerdayish, havolanmoq, iftixor, iftixorli, kekkayish, kekkaygan, kerik, kiborlik, kibr, kibrlil, mag‘rurlanish;

b) *murakkab so‘z holatidagi birliklar:* badhavo, balandparvoz, kamsuqum, or-nomus, nomus-or, nomus-iffat, izzat-ikrom, izzat-nafs, kalondimog‘, kalondimog‘lik, kibr-havo, kibr-havoli, nazar-pisand kabi.

Birikma holatidagi birliklarning ichki turlari quyidagilar:

a) *sodda birikma holatidagi birliklar:* balanddan kelmoq, bino qo‘ymoq, burnini ko‘tarmoq, dimog‘i baland, dimog‘ida gapirmoq, dimog‘i ko‘tarilmoq, dimog‘i shishmoq, faxr etmoq, faxr qilmoq, hamiyatiga tegmoq, iftixor qilmoq, katta gapirmoq, katta ketmoq, kattalik qilmoq, katta og‘iz, kibr-havosi baland, ko‘krak keramoq, milliy g‘urur;

b) *murakkab birikma holatidagi birliklar:* bag‘rini ko‘tarib olmoq, bosar-tusarini bilmay qolmoq, bo‘yni yor bermaslik, dimog‘i ko‘kka yetmoq, dimog‘idan eshakqurt yog‘ilmoq, dimog‘iga qurt tushmoq, dimog‘idan qurt yog‘ilmoq, lof-qof urmoq, osmondan kelmoq, osmonda yurmoq, o‘ziga ortiqcha baho bermoq kabi.

Sodda so‘z holatidagi birliklar o‘z o‘rnida ikki guruhga ajraladi:

a) *sodda tub:* dimog‘, faxr, kibr, iftixor, kerik, mag‘rur, g‘urur, takabbur, shon kabi;

⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2020. – B 461.

b) *sodda yasama*: dimog‘dor, andishali, bodilik, dimog‘li, faxrli, gerdaygan, iftixorli, kibr-larcha, kibrli, mag‘rurlik, g‘ururli, shonli kabi.

Murakkab so‘z holatidagi birliklarni, o‘z o‘rnida, qo‘shma va juft birliklar tarzida guruhlash mumkin:

a) *qo‘shma*: balanddan kelmoq, bino qo‘ymoq, burnini ko‘tarmoq, dimog‘i baland, dimog‘ida gapirmoq, dimog‘i ko‘tarilmoq, dimog‘i shishmoq, faxr etmoq, faxr qilmoq, hamiyatiga tegmoq, iftixor qilmoq, katta ketmoq, kattalik qilmoq, katta og‘iz;

b) *juft*: or-nomusli, nomus-orli, nomus-iffat, izzat-ikromli, izzat-nafs, kibr-havo, kibr-havoli, nazar-pisand va h.

O‘zbek tilida “g‘urur” konsepti milliy lisoniy tasvirda o‘ziga xos ma‘nolarni jamlagan konsept sifatida ajralib turadi. Bu konsept o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy va axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. G‘urur nafaqat individning ichki holati, balki uning jamiyatdagi o‘rni, oilaviy, ijtimoiy va etnik qadriyatlari bilan ham bog‘liq bo‘lgan yuksak axloqiy fazilat sifatida qaraladi.



2.1 –rasm. O‘zbek tilidagi “g‘urur” konsepti tarkibi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan, “g‘urur” konsepti tilda ifodalanishini tahlil qilishda so‘z birikmalari va so‘z yasalishi muhim o‘rin tutadi. “G‘urur” so‘zi o‘zbek tilida, asosan ot, fe‘l va sifat shakllarida ishlatiladi.

Ot shakllari: “G‘urur”, “g‘ururlik” o‘z qadrini ifodalovchi nom sifatida ishlatiladi.

Fe‘l shakllari: “G‘ururlantirmoq”, “g‘ururlanmoq”, “g‘ururini saqlamoq” “g‘ururdan tushmoq” kabi fe‘l birikmalari.


Sifat shakllari: “G‘ururona”, “g‘ururli”, “g‘urursiz” kabilar.

Formal tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi “g‘urur” konseptiga mansub birliklar ko‘proq turkiy va arabiy, ulardan nisbatan kamroq forsiy va qisman ruscha-baynalmilal leksemalardan iborat. Struktur jihatdan bu tizimga kiruvchi birliklar sirasida takroriy so‘zlar kam uchrashi ma‘lum bo‘ldi. So‘z birikmasi va gap holatidan o‘sib chiqqan atov birliklari ham tizimda ma‘lum miqdorni tashkil qiladi. Juft birliklar tarkibi o‘z qatlam + o‘zlashma qatlam (yoki uning aksi bo‘lgan o‘zlashma qatlam + o‘z qatlam)dan iborat.

Bobning ikkinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida “g‘urur” konsepti birliklarining o‘zaro sinonimik va antonimik munosabatlari”* deb nomlanib, unda qiyoslanayotgan tillardagi “pride” va “g‘urur” konsepti tarkibidagi atov birliklarning o‘zaro ma‘noviy munosabatlari yoritilgan.

Ingliz tilida “pride” konsepti sinonimik va antonimik munosabatlarga ham kirishadi. Sinonimik munosabatda tushunchalar bir-biriga yaqin yoki aynan bir xil ma’noni bildiradi. “Pride” tushunchasi bilan sinonimik munosabatga kirishuvchi konseptlar:

1. “Pride” konsepti birliklari orasidagi *sinonimik munosabatlarni* tavsiflashda to‘liq mos keluvchi sinonimlar (masalan, self-respect – dignity – self-esteem – vanity – arrogance); qisman mos keluvchi sinonimlar – kvazinsonimlarga, ya’ni umumiy jihatlari mos keladigan (masalan, confidence – satisfaction – boastfulness – self-importance)ga ajratdik. Ba’zi tillarda sinonimik bog‘liqliklar turlicha tushuniladi. Masalan, ingliz tilida “pride” va “self-respect” ijobiy konnotatsiyada sinonim hisoblanadi, lekin qadimgi diniy matnlarda “pride” so‘zining sinonimi “hubris” so‘zi bo‘lib, u salbiy ma’noda ishlatilgan.



2.4 – rasm. “Pride” konseptining sinonimik qatori

Yuqoridagi sxemadan “pride” konsepti sinonimik qatoridagi birliklar ijobiy va salbiy ma’nolar orqali farqlanishi hamda salbiy ma’no ifodalovchi birliklar qatori o‘z navbatida ijobiy ma’noli birliklar qatori bilan antonimik munosabatga kirishishi mumkinligini ko‘rsatadi.

U yoki bu ma’noda qarama-qarshi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni bog‘lovchi korrelyatsiyalar guruhi *antonimik munosabatlardir*. Antonimlarning semantik tasnifi ular ifodalagan qarama-qarshilik turiga asoslanadi. Kontrar, to‘ldiruvchi (komplementar) va vektor antonimiyalari mavjud bo‘lib, kontrar (qarama-qarshi) antonimiya o‘ziga xos tushunchalar bilan ifodalanadi, ular orasida uchinchi, ya’ni o‘rta tushuncha bo‘lishi mumkin: Pride – Humility – Arrogance.

To‘ldiruvchi (komplementar) antonimiya bir-birini shunday to‘ldiradigan o‘ziga xos tushunchalar bilan ifodalanadiki, ular orasida uchinchi, o‘rta tushuncha bo‘lishi mumkin emas: pride-modest, pride-humble.

Vektor antonimiyasi ko‘p yo‘nalishli harakatni bildiruvchi juftliklarda qayd etilgan:

Pride → *low self-esteem, self-doubt, dishonor, shame, humility, modesty.*

“G‘urur” konsepti sinonimik va antonimik munosabatga ham kirishadi. Sinonimik munosabatda tushunchalar bir-biriga yaqin yoki aynan bir xil ma’noni bildiradi. “G‘urur” tushunchasi bilan sinonimik munosabatga kirishuvchi konseptlar:

Faxrlanmoq, g‘ururlanmoq. Biror kimsa, narsa yoki erishilgan yutuq tufayli maqtanmoq, g‘urur his qilmoq, mamnun bo‘lmoq. G‘ururlanmoq - og‘zaki nutqda

vaziyatga ko‘ra ijobiy (iftixor qilmoq) yoki salbiy (kibrlanmoq) ma’nolarda qo‘llaniladi. *Mening otam milliy qahramon ekan. Xalq ozodligi uchun kurashgan. Men shunday otam borligidan faxrlanaman.* (S.Axmad, Buqalamun bilan uchrashuv.)¹⁰

“G‘urur” leksemasining sinonimik qatorini quyidagicha keltirish mumkin : *Manmanlik – dimog‘dorlik – kalondimog‘lik – keriklik – chiranchoqlik - karamdalik – kattazanglik – takabburlik – mutakabbirlik*

U yoki bu ma’noda qarama-qarshi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni bog‘lovchi korrelyatsiyalar guruhi *antonimik munosabatlardir*. Antonimlarning semantik tasnifi ular ifodalagan qarama-qarshilik turiga asoslanadi. Kontrar, to‘ldiruvchi (komplementar) va vektor antonimiyalari mavjud.

Kontrar (qarama-qarshi) antonimiya o‘ziga xos tushunchalar bilan ifodalanadi, ular orasida uchinchi, ya’ni o‘rta tushuncha bo‘lishi mumkin: kamtar – muvozanatli, o‘rtacha – manman.

To‘ldiruvchi (komplementar) antonimiya bir-birini shunday to‘ldiradigan o‘ziga xos tushunchalar bilan ifodalanadiki, ular orasida uchinchi, o‘rta tushuncha bo‘lishi mumkin emas: Faxr – sharmandalik, uyat.

Vektor antonimiyasi ko‘p yo‘nalishli harakatni bildiruvchi juftliklarda qayd etilgan:

Dimog‘dor \longrightarrow sodda, kamtar, hokisor, o‘zini pastga uradigan...

Sinonimlar qatori bir necha so‘zdan iborat bo‘lib, unda bir so‘z asosiy, sinonimik qatorning xarakterini belgilovchi so‘z bo‘ladi, bu so‘z *dominanta* hisoblanadi. Sinonimik qatorning chegarasini belgilashda asosiy so‘z hisobga olinadi, boshqa so‘zlar bir-biriga emas, balki asosiy so‘zga qiyoslanadi. Masalan: o‘zbek tilidagi *g‘urur, faxr, kibr, manmanlik, takabburlik* sinonimik qatorida “g‘urur” so‘zi *dominanta* hisoblanadi.

“G‘urur” tushunchasi turli so‘z turkumlari bilan ifodalanadi. Sifat sinonimlar zanjirida bitta tushunchaning turlicha ma’nolari ifodalanishida asosiy vazifani quyidagilar o‘taydi: *Manman, dimog‘dor, kalondimog‘, kerik, kerilmachiq, kerilmajon, kekkayma, kekkaymajon, chiranmachiq, chiranchoq, karanda, kattazang, takabbur, mutakabbir* kabilar.

Ot (substantial) sinonimlar zanjirida bitta tushunchaning turlicha jilolari ifodalanishi:

a) Ijobiy konnotativlik: *faxr, iftixor, shon-sharaf, or-nomus, sha’n, shon-shuhrat* kabilar.

b) Salbiy konnotativlik: *kibr, manmanlik, takabburlik, dimog‘dorlik* kabilar.

Fe‘l so‘z turkumi leksik sinonimlar zanjirida “g‘urur” konseptining ifodalari: *faxrlanmoq, g‘ururlanmoq, kibrlanmoq* kabilar.

Ishning uchinchi bobi **“Qiyoslanayotgan tillarda “pride” va “g‘urur” konsepti birliklari leksikografik talqini va badiiy diskursda voqealanishi”** deb nomlanib, u uch fasldan iborat. Ishning **“Ingliz tilidagi “pride” konsepti leksikografik talqini masalalari”** deb nomlangan birinchi faslida ingliz lug‘atlarida (Oksford, Kembridj, Vebster kabi) “pride” konsepti birliklarining izohlari talqini berilgan.

¹⁰ Mahmudov N. “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”. – G‘afur G‘ulom, Toshkent. – 2023. –B.512.

Ingliz tilida “pride” konseptining ilk tahliliy bosqichi lug‘atlardagi ma’no hisoblanadi. “Macmillan English dictionary” lug‘atida berilgan izohlarni ko‘rib chiqsak:

Pride (noun):

1. A high, esp. an excessively high, opinion of one’s own worth or importance which gives rise to a feeling or attitude of superiority over others; inordinate self-esteem. A feeling of respect for yourself.

2. Arrogant, haughty, or overbearing behavior, demeanor, or treatment of others, esp. as exhibiting an inordinately high opinion of oneself.....

3. A person of whom, or thing of which, any person or group of people is proud; that which causes a feeling of pride in its possessor; (hence) the foremost, best, or most distinguished *of* a class, country, etc.

4. The feeling of satisfaction, pleasure, or elation derived from some action, ability, possession, etc., which one believes does one credit.¹¹

Yuqoridagi izohlar ingliz tilidagi “pride” tushunchasining ko‘p qirrali tabiati va uning turli xil kontekstlarda ijobiy va salbiy ma’nolarda ishlatilishini ko‘rsatadi.

“Oxford English Dictionary on Historical Principles” lug‘atiga ko‘ra, “pride” atamasi ilk bor X asrda qo‘llanilgan deb hisoblanadi. Bu so‘z o‘zining hozirgi ma’nosida “unreasonable self-esteem, pride; desire to exceed one’s proper station” ya’ni o‘ziga nisbatan yuqori baho berish, o‘zligini hurmat qilish ma’nosida ishlatilgan.¹²

Tadqiqotlarimiz natijasida eski fransuz tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan ifodalar “pride” konsepti doirasida ko‘p uchrashiga guvoh bo‘ldik. Mazkur ifodalardan biri quyidagicha izohlanadi:

Vanity ('vænəti), n., pl. -cies. 1: something that is vain, empty or valueless 2: the quality or fact of being vain 3: inflated pride in oneself or one’s appearance: conceit.¹³

Ushbu izoh keng tarqalgan tushunchalardan yana biri o‘zbekcha “shuhratparastlik” ifodasiga nisbatan berilgan. Bu birlik etimologiyasi ham dastavval lotin tiliga, so‘ng esa eski fransuz tiliga borib taqaladi. Ifodaga shunday izoh beriladi:

- o‘z qobiliyati yoki tashqi ko‘rinishi bilan faxrlanish;
- boshqa narsalar bilan taqqoslaganda ahamiyatsiz bo‘lish;
- g‘ururni ko‘rsatadigan xulq-atvor yoki munosabatlar.

So‘z izohi ilovasida birlikning ma’nodoshlari ham keltiriladi. *Vanity*, *conceit*, *pride*, *arrogance* kabi birliklar “maqtanish, manmanlik, kibr, shuhratparastlik” so‘zlarining ma’nodoshlari sifatida qayd etilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, “vanity” odatda salbiy ma’noda ishlatiladi va insonning boshqalarning ko‘zida katta e’tibor qozonish yoki o‘zini ulug‘lashga bo‘lgan ortiqcha intilishiga ishora qiladi.

Keyingi atama yuqoridagilardan farqli ravishda ingliz tiliga fransuz tili orqali emas, balki lotin tilidan kirib kelgan va ingliz tilidagi suffikslar yordamida o‘zlashgan:

¹¹ Oxford English Dictionary. Oxford UP, December 1, 2024 <https://doi.org/10.1093/OED/7380022113>

¹² Oxford English Dictionary on Historical Principles. Vol. VII, O–P, 2nd ed., Oxford University Press, 1989, pp. 622–624.

¹³ Merriam-Webster’s Collegiate Dictionary, 11th ed., USA, 2003.

